



Zilola BOLTAYEVA,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi
E-mail: zilolaboltayeva3885@gmail.com

O'zMU dotsenti G.Keldiyorova taqrizi asosida

THE STUDY OF PRAGMALINGUISTICS IN WORLD LINGUISTICS

Annotation

This article describes the formation of pragmalinguistics and the scientists who contributed to it. It also pays special attention to the practical and theoretical formation of pragmalinguistics. The issues of the importance of linguopragmatics are justified today.

Key words: Atropocentric, pragmatics, semantics, semiotics, presupposition, discourse, oratory situation, oratory act.

ИЗУЧЕНИЕ ПРАГМАЛИНГВИСТИКИ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В этой статье рассказывается о становлении прагмалингистики и ученых, внесших в нее свой вклад. Также в нем особое внимание уделяется практическому и теоретическому формированию прагмалингистики. Вопросы важности лингвопрагматики сегодня обоснованы.

Ключевые слова: Атропоцентрический, прагматика, семантика, семиотика, пресуппозиция, дискурс, речевая ситуация, речевой акт.

JAHON TILSHUNOSLIGIDA PRAGMALINGVISTIKANING O'RGANILISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada pragmalingvistikaning shakllanishi va unga hissa qo'shgan olimlar haqida to'xtalib o'tiladi. Unda pragmalingvistikaning amaliy va nazariy shakllanishiga ham alohida to'xtalib o'tiladi. Bugungi kunda lingvopragmatikaning ahamiyati masalalari asoslanadi.

Kalit so'zlar: Atropocentrik, pragmatika, semantika, semiotika, presuppozitsiya, diskurs, nutqiy vaziyat, nutqiy akt.

Kirish. Bugungi kunda tilshunoslikda antroposentrik tilshunoslik yo'nalishlaridan biri deb e'tirof etilayotgan pragmalingvistika yoki lingvopragmatika keng qamrovli soha sifatida shakllanib bormoqda, rivojlanmoqda. Bugungi kun nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, muloqot jarayoni va uning nutqiy vaziyat, shaxs omili bilan bog'liqligi va nutqiy akt nazariyasiga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, turli ilmiy va badiiy asarlarning lingvopragmatik tadqiqiga oid bir qancha maqolalar, ilmiy tadqiqot ishlari yaratilib, bular o'z navbatida mazkur sohaning rivojiga yanada qo'shilayotgan hissalaridan ekanligini ko'rsatadi.

Xususan, XX asr 30-yillariga kelib jahon tilshunosligida pragmatika keng aspektda o'rganila boshladi. XX asrning 50-yillaridan so'ng tilshunoslikda pragmatik yondashish keng tus oldi. Pragmatika – pragmatik lingvistika, pragmalingvistika, pragmafologiya, pragmafonetika, pragmagrammatika, pragmasintaksis kabi yangi tushuncha va atamalar, bu tushuncha va atamalar ostida esa til hodisalariga yangicha yondashish, ularni yangicha talqin qilish bilan bog'liq bo'lgan yangi tushunchalar va tahlil usullari keng ommalashdi. Mustaqillik yillarida til dunyosidagi kabi o'zbek tilshunosligida ham lingvopragmatika masalalarini o'rganish, sohaning predmeti va vazifalari, metodlari va tushunchaviy-terminologik apparatini o'zlashtirish maxsus tadqiqotlarni taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida lingvopragmatikaga ulkan hissa qo'shgan V.V.Petrov, O.S.Axmanova, K.Byuler, O.G.Bondarenko, G.G.Matveeva, I.V.Samarina, L.N.Seliverstova, S.Levinson, E.I.Petrova, Yu.S.Stepanov, I.M.Kobozeva, N.I.Laufer, J.L.Ostin, M.N.Kojinoy, J.R.Serl, N.I.Formanovskaya, Ch.Pirs, G.Klaus, Ch.Morris, J. Layonz kabi olimlarning adabiyotlaridagi nazariy ma'lumotlariga suyanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pragmatika nutq va axloqiy, insoniy xatti-harakat, ruhiy faoliyat bilan bog'lik bo'lgan ko'plab fanlarning kesishish nuqtasida turadi. Pragmatika struktur tilshunoslik, stilistika, nutq madaniyati, poetika va lingvopoetika, psixolingvistika, etika va estetika kabi fanlar bilan, umuman insonning ongli va ongsiz madaniy va tabiiy xatti-harakati bilan

bog'lik bo'lgan, kulturologiya umumiy nomi bilan birlashadigan fanlarning barchasi bilan yaqin aloqada bo'ladi. Ammo ularning birortasi pragmatikaning o'rmini to'la-to'kis bosa olmaydi.

Tahlil va natijalar. Pragmatika atamasi, dastlab, tilshunoslik faniga XX asrning 30-yillarida mashhur olim Ch.Morris tomonidan kiritilgan. U pragmatikani semiotikaning tarkibiy qismlaridan biri deb ta'kidlaydi: "Gap semantikasini shu gap tarkibida qo'llanilayotgan so'zlarning faqat obyektiv borliqqa munosabatini aniqlash bilangina to'la izohlash mumkin emas. Bunga gapning nutq jarayoniga, nutq vaziyatiga ega bo'lgan munosabatini aniqlashni ham qo'shish zaruriyati mavjud. Ana shunday amaliy ehtiyoj bilan lingvistik semantika bag'ridan lingvistik pragmatika o'sib chiqdi"[4]. O'tgan asr boshlariga kelib pragmatika sohasiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Unga qadar semiotika va sintaktika diqqat markazida bo'lgan. Gap semantikasini aniqlashda so'zlarning obyektiv borliqqa munosabatini aniqlash bilangina cheklanilgan bo'lsa, keyinchalik so'zlarning nutq jarayonida ma'no ifodalash jihatlariga ham e'tibor qaratila boshlandi. Natijada zamonaviy tilshunoslikda yangi bir soha vujudga keldi, ya'ni lingvopragmatik yo'nalish shakllandi.

"Pragmatika nazariyasi kishilar o'rtasidagi aloqaralashuv jarayoniga xos verbal va nonverbal munosabatning mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Semiotik jarayon tahlilida inson omilining inobatga olinishi muhimdir. Tilshunoslikda "inson omili" deganda so'zlovchi shaxs tushuniladi"[1]. Rus tilshunosi G.G.Matveyeva pragmatika sohasini shaxslar o'rtasidagi lisoniy va nolisoniy munosabatlarning asl mazmun-mohiyatini anglashda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Bunda shaxs omilini hisobga olish kerakligini uqtiradi. Zero, "...hech bir tilni til egasidan ajratgan holda to'g'ri va to'liq o'rganish mumkin emas. Chunki nutqiy aktda so'zlovchi shaxsining izi sezilib turadi"[5]. Tilshunoslikdagi inson omili muloqot ishtirokchilaridan biri bo'lgan so'zlovchi shaxs ekanini yodda tutish lozim.

"Pragmatika" inson har qanday sharoitda nimani va nima maqsadda gapirayotganini ochib beradi, ifodaning pragmatik

effekti qanday ekanligini tushuntiradi va yakuniy xulosani aniqlaydi.

Pragmatika so'zlovchi tinglovchiga ta'sir qilishi uchun o'z repertuaridagi lingvistik birliklardan fikrlariga va hislariga mosini tanlashidir"[8]. Shu kunga qadar pragmatika atamasiga turlicha ta'riflar bayon etildi. Shunday bo'lsa-da, ta'riflarning har biri pragmatikaning qaysidir bir jihatini qamrab olishi bilan ham xarakterli hisoblanadi. Jumladan, Y.Stepanovning pragmatika yuzasidan xulosalaridan shu narsa ayon bo'ladi, olim so'zlovchining tinglovchiga ta'sir eta olish masalasini bosh mezonlardan deb hisoblaydi. Zero, har qanday nutqiy muloqotga ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda kirishiladi. Agar so'zlovchi o'z suhbatdoshiga ta'sir o'tkaza olmasa va uning fikr-mulohazalarini harakatga keltira olmasa, ko'zlagan maqsadiga erishgan hisoblanmaydi. Ifodaning pragmatik effekti tinglovchiga perlokutsiya orqaligina yuzaga chiqadi. Pragmatika tilshunoslikning yangi bir nazariy va amaliy tarmog'i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta'siri bilan namoyon qiluvchi nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarni o'rganadi"[2]. Muloqot jarayonida so'zlovchining tinglovchiga munosabati va kommunikativ maqsadi bilan bog'liq muammolar pragmatikaning mohiyatini tashkil etishi yuqoridagi ta'rifdan oydinlashadi. Shuningdek, qachonki nutqiy faoliyat insonga xos ruhiy fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy sistemalar bilan bog'liqlikda tadqiq etilgandagina uning mohiyati ochiladi. Ma'lumki, pragmatika yo'nalishi harakatdagi jonli tilni tadqiq etishi bilan amaliy sohalar qatoriga kiradi. Rus tilshunosligida pragmatikaning "praktika" atamasi bilan yonmayon qo'llanishidan ham shu mazmun anglashiladi.

Pragmatikaning tilshunoslikka kirib kelishi va shakllanishida Ch.Morrisning xizmatlari katta bo'lgan bo'lsa, lingvistik pragmatikaning taraqqiyotida esa Ferdenand de Sossyur faoliyatini e'tirof etmaslikning iloji yo'q.

Lingvistik pragmatika tilshunoslikning amaliy sohalaridan bo'lib, uning ayni rivoj topgan davri XX asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Amaldagi jonli tilni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etuvchi mazkur soha so'nggi chorak asr mobaynida yangi-yangi tadqiqotlarning yaralishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, rus tilshunosligida lingvistik pragmatika sohasi atroflicha o'rganildi. Hattoki pragmalingvistikaning funksional va yashirin turlari ajratildi. Muloqot jarayoni bilan bog'liq bo'lgan kommunikativ taktika, kommunikativ strategiya tushunchalari tilshunoslik nuqtayi nazari bilan chuqur tahlil qilindi[1].

Tilshunos olim V.V.Petrovning til haqidagi quyidagi tezisi lingvopragmatikaning boshlang'ich tadqiqiy chegarasini aniqlash uchun lingvistik asos bo'ladi: "Inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so'zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o'sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo'lishning o'zi ushbu tilda so'zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, masalan, musiqali pyessa mazmunidan ogohlik uning ijrosi uchun yetarli bo'lmaydi, buning uchun, eng asosiysi, ijro mahorati, layoqati ("умение играть") ga ham ega bo'lish lozim"[6]. Darhaqiqat, inson semantik bilimlarning o'zi bilan kifoyalanishi mumkin, qachonki, xorijiy tilda muloqotga kirishsa. Lekin o'z ona tilida so'zlashadigan inson borki, semantik bilimlarning o'zi bilan samarali muloqotga erisha olmaydi. Lisoniy birliklarning semantikasi bilan birga ulardan muloqot jarayonida foydalanish ko'nikmasini ham shakllantirgan bo'lishi kerak. Bular o'z navbatida insonning milliy qadriyatlarini va ma'naviyati bilan uzviy bog'liqdir.

Demak, tildan foydalanish mahorati ilmi o'rgatilmaydi, u inson bilan birga tug'iladi va an'ana-qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shakllanib boradi.

Keyingi yillarda deyarli barcha tilshunoslar "pragmatika" atamasini qo'llamoqda. Buning oqibatida esa, o'ziga xos pragmatik "fetishizm" holati paydo bo'lib, bajarilgan tadqiqotlarda atamaning qo'llanishidan tashqari, uning mazmuniga oid biror bir ma'lumotni topish qiyinlashib bormoqda. Lozim bo'lsa bo'lmasa atama qo'llanaversa, uning negizida turgan tushunchaning siyqalanishiga olib kelinishi turgan gap. Shuning uchun, lisoniy birliklar pragmatik xususiyatlari, ularning tahlili haqida gapirishdan oldin "Pragmatika nima bilan shug'ullanadi?", "Uning tadqiqot obyekti va predmeti nimadan iborat?", "Pragmatikaning asosiy tushunchalari, tamoyillari qaysilar?" kabi savollarga javob izlash lozim. Pragmatikaning predmetini aniqlashga ilk bor harakat qilgan tilshunoslardan biri germaniyalik tilshunos Georg Klaus edi. U o'z asarida pragmatikani "belgilar va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi va qabul qiluvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi" fan sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G.Klaus ham boshqa semiotiklar, Ch.Pirs, Ch.Morris, Yu.S.Stepanovlar, kabi belgi va uni idrok etuvchi - interpretator munosabatidan uzochlashmaydi. Hatto uning "pragmatika dastlabki o'rinda lisoniy belgilarning psixologik va sotsiologik tomonlarini o'rganuvchi nazariyadir" (Klaus. 1967. 22b) degan xulosasi ham pragmatika tushunchasini tor mazmunda tavsiflaydi. Shuningdek, olim boshqa tilshunoslardan farqli ravishda, semiotik nuqtayi nazaridan tilning to'rt yo'nalishini ko'rsatib o'tadi. Dastlab, sintaktika belgi bilan belgi o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Semantika moddiy olamni aks ettiruvchi tushunchalar nuqtayi nazaridan belgi ma'nosini o'rganadi. Sigmatik yo'nalish belgi va predmet o'rtasidagi o'zaro munosabatni o'rganadi. Pragmatika esablagining insonga ta'siri, uning fikrlash uslubiga, ahloqiga, histuyg'usiga ta'sirini o'rganadi[2]. Shu nuqtayi nazaridan, J.Layonz pragmatikaning predmetini aniqlash va unga ta'rif berishga harakat qilib shunday deydi: "Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axbarotni xuddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi deyish demakdir". Ammo S.Levinson ta'rifiga yuzlanadigan bo'lsak u J.Layonz keltirgan ta'rifga nisbatan boshqacharoq ta'rifni keltiradi ya'ni uning ta'rificha: "Pragmatika tildan foydalanuvchilar gaplarining kontekstda o'rinli qo'llanilayotganligini o'rganuvchi sohadir".

Pragmalingvistika sohasining nazariy masalalar taraqqiyotida amerikalik faylasuf va tilshunos olim J.Serlning hissasi katta, olimning ilmiy g'oyalari, izlanishlari katta ahamiyatga ega. Tilshunos nuqtayi akt nazariyasi va tasnifi, nuqtayi akt illokutiv va propositsional mazmuni o'rtasidagi mavjud farqlarni asosli ravishda yoritib beradi[9]. J.Serlning nazariyalari bugungi kunda ham ifodaning semantik va pragmatik tuzilishi, nuqtayi aktlar tasnifi borasida muhim nazariy manba sifatida muhimdir.

Xulosa. Lingvopragmatika tilshunoslikdagi yangi nazariy va amaliy soha sifatida bugungi kunda faol rivojlanishda davom etmoqda. Maqolada pragmatikaning nazariy va amaliy asoslari, paydo bo'lish bosqichlari, sohaning rivojida hissa qo'shgan dunyo tilshunos olimlari, shuningdek, o'zbek tilshunosligida faoliyat olib borgan olimlar, ularning sohaning asosiy masalalarini belgilash haqidagi qarashlari bayon qilingan. Shuningdek, lingvopragmatikaning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni, inson omilini til bilan uzviy ravishda o'rganuvchi "harakatdagi til"ni tadqiq etuvchi asosiy fanlardan biri ekanini, lingvopragmatikaning umumiy masalalari xususidagi nazariy qarashlar va olimlarning bu soha borasidagi fikrlari e'tirof etilgan.

ADABIYOTLAR

1. Матвеева Г. Г., Самарина И. В., Селиверстова Л. Н. Два направления в современной прагмалингвистике // Вестник Санкт-Петербургского университета // Сер. 12. 2009. Вып. 1. Ч. II
2. Hakimov M. O'zbek Pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013, 5-bet.
3. Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari. Nomz.disser... avtoref. Toshkent, 1993.
4. Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi.-Toshkent: 2001, 4-son.
5. Nurmonov A. Immanentlikdan kognitivlikka. // O'TA. 2009, 6-son.
6. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. - М., 1985. - С.474).
7. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.-B. 70.

-
8. Степанов Ю.С. В поисках прагматики (проблема субъекта) // Изв. АН СССР. Сер. Лит-ри языка. 1981.Т. 40, N 4. S. 325-326.
 9. Серл.Ж. Что такое речевой акт? // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XVII. Теория речевых актов. - Москва: Прогресс, 1986.